



YANGI O'ZBEKISTON

Abduazizova Nilufar Akmal qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyot fakulteti 2-ingliz tili 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6941037>

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yorqin kelajak tomon bosayotgan qadamlari, amalga oshirayotgan islohotlari va yangilanishlar haqida ohib beriladi. Shu bilan birga "Yoshlar kelajak bunyodkorlari" maqoli ostida yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar eshigi va xalq bilan muloqot davlat tinchligi, osoyishtaligi yo'lidagi asosiy kalit hisblanishi haqida fikrlar bildirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, ta'lif muassasalari, Ibrat tillar oromgohi, O'zbek tili, Wiki-stipendiya, nomdor stipendiyalar, "Yosh kitobxon" tanlovi, "Birgalikda Yuksalamiz" loyihasi,

Yangi so'zining ma'nosi ilgari bo'limgan narsalarning endi sekinlik bilan vujudga kelishini anglatadi. Yangilanish har bir narsalarga, butun bir koinot uchun xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyevning Prezident bo'lib saylangan yildan to hozirgi vaqt mobaynigacha amalga oshirilgan islohotlar va tub o'zgarishlar, rivojlanishlar shiddat bilan davom etayotgan davrda Yangi O'zbekistonning yangicha o'zgarishlar bilan xorij sahnalariga qadam bosayotganligi va Uchinchi Renessans, yana bir Uyg'onish davriga poydevor yaratilinayotganligi buning yaqqol dalilidir.

Dastlabki qadam 2017-2021 yillar mobaynida O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan beshta ustuvor yo'naliш - Harakatlar strategiyasi o'z faoliyatini boshladi. Undagi har bir yo'naliш davlat va jamiyat o'rtasidagi musobatlarni demokratlashtish va mamlakatni modernizatsiya qilishda davlat organlari va siyosiy partiyalarning o'rni, davlat boshqaruv tizimiga o'zgartirishlar kiritish, sud organlari va ularning faoliyatini yangidan o'rnatish, shu bilan iqtisodiy o'sish sur'atlari, ularning faoliyatidagi barqarorlikni ta'minlash, O'zbekiston hududida millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, ijtimoiy sohaga o'zgartirishlar kiritish va aholi bandligini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirib, aholi uchun qulayliklar yaratish, xotin-qizlarni jamiyatda faolligini oshirish, yangicha uslubdagi aholi turar-



joylari barpo etish, ta'lim, ma'daniyat, ilm-fan sohalarida chet standartlariga javob beruvchi uslublarni yaratish besh ustuvor daturlar qamrab olgan asosiy maqsadlar hisoblanadi. Prezidentning yagona murojaat portalini va xalq qabulxonalarini tashkil qilindi, bularning bari xalq manfaatlari va ularning ham kelajak bunyodkori sifatida hissa qo'sha olishlari, amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimizning haq-huquqlarini himoya qilishi, erkin va farovon hayot yaratishi uchun ochiqlik asosiy maqsad qilib olindi. Yangi O'zbekiston davlati – xalqnikidir.

Yangi O'zbekiston – insoning iste'dodi va rivojlanishi qadrlanadigan va uni doimo qo'llab-quvvatlaydigan davlatlardan biridir. Ilm-fan uchun tikilgan sarmoya eng tog'ri sarmoyadir, shu bilan birga yurtimizning eng ko'p qismini yoshlar tashkil qiladi va ular kelajak uchun navqiron niholdir, ularni qanday parvarish qilsak, mehnatimizga yarasha hosil olamiz. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish, shuningdek, uzoq muddatli (2030-yilgacha) Oliy ta'lim tizimi, maktab va maktabgacha ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish maqsadida konseptsiya tasdiqlandi. Oliy ta'limda ko'plab yoshlarni qamrab olish maqsadida, kelajakda o'z kasblariga ega bo'lislari uchun o'quv o'rinalining ko'paytirilishi, yana xotin-qizlar uchun grantlar sonining oshishi, xorijiy muassalar faoliyatining o'sib borishi mahalliy oliy ta'lim o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun asosiy maqsadlardandir. 2021-yilda o'z yurtimizda chet el standartlariga mos o'qitish tizimiga, o'qituvchilariga, mutaxassislariga, qulay sharoitlarga ega bo'lgan Yangi O'zbekiston Universtiteti tashkil etildi. Uning asosiy maqsadi o'zimizda yetishib kelayotgan iqtidorli, bilimli yoshlarni chet elda emas, o'z yutimizda o'qishi uchun, yangi bilimlarlar va malakalarga ega bo'lislari uchun zamon talabida bo'lgan kasblar asosida o'z faoliyatini boshladi. Univeritet o'qitish dasturlari esa chet elning nufuzli universtitetlari tizimi asosida tashkil etiladi. Shu bilan birga Prezident ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktablar ham uning davomi hisoblanadi. Davlat rahbarimiz ta'kidlaganidek, bilim yoshlar davlatimizning "oltin fondi" dir, shu sababdan ham ularni birga joyga yig'ish, fikr almashish maqsadida "Yoshlar ishlari agentligi" tashkil etildi, agentlik tomonidan ham bir qancha loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Masalan, bulardan biri " Ibrat tillar " oromgohidir, u yerda bir hafta mobaynida saralab olingan 250 nafar ingliz tilida be'malol muloqot qila oladigan yoshlar nafaqat o'z bilimlarini, balki o'z tengqurlaridan o'rnak olib yangiliklar yaratishmoqda, yana ular uchun har



kuni tashkil etilayotgan qiziqarli loyihalar, maxsus suhabatlar ularni yanada yangi narsalar yaratish uchun undashi aniq.

Dunyoda tillar shunchalar ko'pki, ammo yillar davomida ularning ko'pi jamiyatda o'z o'rnnini yo'qotmoqda, bunga asosiy sabablardan biri muloqot qiluvchilar sonining pasayishi, yoki o'sha tilda yaratilgan kitoblar, ma'lumotlarning kamayib ketayotganligidadir. Buning oldini olish maqsadida yurtimizda bir-qancha chora tadbirlar ko'rilmoxda, bunda misol tariqasida 2022-yildan o'z faoliyatini boshlagan Wiki-stipendiya ma'rafonini misol keltirishimiz mumkin. Bu ma'rafoning asosiy maqsadlaridan biri o'zbek tilidagi maqolalarning sonini ko'paytirish va aholi izlayotgan savoliga be'malol o'z tilida javob topa olishi uchun imkoniyatlar beradi. Ma'rafon davomidan esa O'zbekiston o'z ona tilidagi maqolalari bilan xalqaro reytingda oxirgi natijalar asosida 62-o'rindan 59-o'ringa ko'tarilib oldi. Shu bilan birga iqtidorli talabalarning iste'dodini taqdirlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan "Nomdor stipendiyalar" tizimi tashkil etildi va bu ko'plab yoshlarning yozgan amaliy ishlari, kitoblari, maqolalarining xalqaro maydonlarga chiqishiga ham sabab bo'ldi. Bularning bari albatta yoshlarni olg'a qadam tashlashga va xech qachon bilim olishdan to'xtamaslikka undaydi. Kitob o'qishni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish, va ularda kitobga bo'lgan muhabbatni oshirish maqsadida turli xil loyihalar tashkil etildi, masalan "Yosh kitobxon" tanlovi ko'plab kitobga oshno yoshlarni birga joyga yig'ilishiga sabab bo'ldi, va faol yoshlаримиз орасида ham ozchilik bilan boshlanib hozirda juda ham ko'p yoshlarni o'z ichiga oluvchi loyiha "Birgalikda Yuksalamiz" loyihasi ham tashkil etildi. Bu loyihaning asosiy maqsadi ham kitobxonlikka bo'lgan e'tiborning kuchayishiga va kitob o'quvchilarning soni ortishiga be'malol sabab bo'ldi desam adashmagan bo'laman. Masalan, hozirgi kunda ingliz, rus va turk tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan kitoblarning soni ham oldingi vaqtlargaga nisbatan oshgan. Yana o'tmishdagi ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish va ularning qilgan ishlaridan o'rnak olish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan jadidchilikka bag'ishlangan kitoblar ham nashrdan chiqdi.

Yangi O'zbekiston bu yorqin kelajak yaralayotgan davlatdir. Biror bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun ilm-fan asosiy o'rinda turadi, sababi bilimga, malakaga ega bo'lgan insongina yangi narsalar yaratishga qodir. Xalq to'lqingga o'xshaydi, agar sen kemada bo'lsang faqatgina u

YOSH TADQIQOTCHI JURNALI



2nd Sun

boshlagan yo'lga yurasan, oqimdan chiqib keta olmaysan, shu tafayli ham biror bir davlat tinch-totuvligida ham, rivojida ham xalq asosiy vazifani bajaradi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. yuz.uz/news 15-dekabr 2020-yil Bahor Xidirova
2. uzavtoyul.uz Avtomobil Yo'llar Qo'mitasi 8-fevral 2017-yil
3. New Uzbekistan University kun.uz 23.06.2021 yil
4. t.me/alisher_sadullayev rasmiy kanali